



## MAKTAB TA'LIMIDA INKLYUZIV TA'LIM VA BU JARAYONDAGI ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR

**Aktamova Dinora**  
**Abdullayeva Durdona**  
**Qayumova Marjona**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 2-kurs 1-23-guruh talabalari*

**Annotasiya:** *"Millatni buyuk, mamlakatni qudratli qiladigan kuch bu- ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir,"- deb bejiz aytmagan respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev, chunki mamlakatning shonli kelajagi shu uch narsa tufayli barpo etiladi. Statistika ma'lumotlariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston aholisining 50% ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ularni sifatli ta'lim bilan ta'minlash, kerakli barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berish uchun mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat yillik daromadining 50% miqdori yoshlar uchun sarflanmoqda. Bu ishlar ro'yxatining birinchi o'rinlarida, albatta, ta'lim tizimi, uni isloh qilish va yangiliklarni ta'lim muassasalariga joriy etish turibdi. So'nggi yillarda maktablarga joriy etilgan inklyuziv ta'lim barchamiz uchun yangilik desak mubolag'a bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim bu - sog'lom bola bilan imkoniyati cheklangan bolaning birgalikda tahsil olishidir. Xo'sh, ta'lim muassasalari inklyuziv ta'limga nechog'lik tayyor? Inklyuziv ta'limda samarali natijalarga erishish uchun nimalar qilish kerak, nimalardan esa voz kechish kerak? Maqolamizda shu savollarga yechim izlab ko'ramiz.*

**Kalit so'zlar:** *inklyuziv ta'lim, yoshlar, ta'lim - tarbiya, ta'lim tizimi, o'quvchi, o'qituvchi, davlat islohotlar*

### **Kirish so'z**

Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ilk bor inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritildi. Inklyuziv ta'lim atamasiga to'xtaydigan bo'lsak ushbu so'z "uyg'unlashmoq", "uyg'unlashtirmoq", "qamrab olmoq", "jalb qilmoq" ma'nolarini beradi. Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi maktablarni xuddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish talab etiladi.

Inklyuziv ta'limda ko'proq o'qish, o'rganish uchun imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Bunda asosan eng katta mas'uliyat o'qituvchi va bog'cha tarbiyachisiga yuklanadi. Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. O'qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifati mas'uliyatini o'z zimmasiga olish shart. Yana bir omil hamkorlikni yo'lga qo'yish. O'qituvchilar uchun



hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhim .Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir-biridan o'rganishadi.

Inklyuziv ta'lim maktablarda quyidagi shakllarda bo'ladi:

- Inklyuziv ta'lim sinfi;
- Boshlang'ich tayanch korreksion sinfi;

Inklyuziv ta'lim sinfi - ta'lim jarayonida sog'lom va alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning birgalikda tahsil olishi ;

Boshlang'ich tayanch korreksion sinfi - bu maktablarda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan boshlang'ich sinf;

O'quvchilarni mazkur sinflarga qabul qilish hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik -tibbiy pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra hamda ota-ona yoki ularning o'rnidagi mas'ul shaxslarning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishimizdan maqsadimiz alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarni jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish , ulardagi mavjud qobiliyat va iqtidorini ko'ra olish va yuzaga chiqarish , ularning huquqiy jihatdan tengligini ta'minlash , maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida teng huquqlikni ta'minlash, kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik va eng asosiysi ularni jamiyatga moslashtirishdan iboratdir.

Inklyuziv ta'lim -nogiron , ya'ni jismoniy jihatdan sog'lig'ida muammosi bor bolalarga nogiron deb faqatgina nuqson jihatidan yondashish emas , balki bu bolalarga har tomonlama to'g'ri yondasha olish jarayonidir. Bu jarayon , albatta , o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi va faqatgina ishlab chiqarilgan qonunlar orqaligina bartaraf etib bo'lmaydi . Ishlab chiqilgan qonunlarga asosan kamchiliklarni to'g'irlash , yetarlicha sharoitni yaratish va eng asosiysi amaliyotda qo'llay olish va alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar uchun samarali dars mashg'ulotlarini olib borishdan iborat.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan har bir bo'lajak pedagog nafaqat sog'lom bolalar psixologiyasini , ta'lim berish prinsiplarini balki alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar bilan ham shug'ullana olishi kerak. Pedagog har bir o'quvchining qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlay olishi , ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ular bilan muntazam ravishda faoliyat olib borishi , ularni har tomonlama kuzatishi va o'quv jarayoniga moslashtira olishi , bolaning har bir erishayotgan muvaffaqiyatini , natijasini ko'ra olishi , ota-onalar bilan hamkorlikda ishlay olishi hamda standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan holatlarda o'zi yangi o'quv reja yarata olishi kerak.

Nuqsonli bolalarning hayotda o'z o'rnini topishi, kelajakda o'z mehnati evaziga hayot kechirish ko'nikmasiga ega bo'lishi, o'qituvchilarimizning oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi va bunda o'qituvchidan kuchli matonat , tinimsiz mehnat , sermahsul faoliyat talab etiladi.

Har bir bola sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun UNICEF inklyuziv ta'lim siyosatini faol qo'llab-quvvatlaydi. UNICEF uylarda, maktablarda va



hamjamiyatda tenglik ,xilma-xillik va inklyuzivlikni rag'batlantirar ekan,ta'lim tizimi hamda tegishli ijtimoiy yordam ko'rsatishni takomillashtirishga ko'mak beradi.

Inklyuziv ta'lim o'quv dasturiga emas,balki bolalarga qaratilgan.Bunday yondashuv har bir bolaning , jumladan ,nogironligi bo'lgan va qo'shimcha yordamga muhtoj bolalarning ehtiyojlariga javob beradigan pedagigikani qo'llash uchun eng yaxshi ta'lim natijalarini ta'minlaydi.

UNICEF o'z faoliyati orqali har bir bolaning huquq va farovonligi ta'minlanishiga erishishga harakat qiladi.O'zbekiston umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim rejasini belgilab olindi.Rejaga ko'ra ,2025-yilgacha alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi ko'zda tutilgan.Davlatimiz rahbarining BMT inson huquqlari bo'yicha kengashning 46-sessiyasida bildirgan ,imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha mintaqaviy kengash tuzish borasidagi taklifni esa nogironligi bo'lgan kishilar himoyasiga qaratilgan yana bir katta tashabbus deyish mumkin.

### **Xulosa**

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim jarayoni uchun bir qancha hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Bu muammolardan bir nechtasini sanab o'tamiz:

1- imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi uchun chiqarilayotgan qonun va qarorlar faqatgina shaharlarda qolib ketyapti, chekka hududlarga yetib kelmeyapti. Tabiiyki imkoniyati cheklangan bolalarning ota- onasi mablag' yetishmasligi tufayli ularni ta'lim olishi uchun shaharlarga yubora olmaydi.

2- imkoniyati cheklangan bolalar uchun kerakli o'quv qurollari ta'lim muassasasida mavjud emasligi va zarur shart-sharoitlarni nafaqat o'quv binosida balki , ko'cha -ko'ylarda ham yo'qligi.

Inklyuziv ta'limning maktablarda joriy qilinishi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuviga, hayotda o'z o'rnini topishiga imkon yaratadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bola bilan birgalikda tahsil olishi ta'lim jarayonini birmuncha murakkablashtiradi. Chunki boshlang'ich sinflarda o'quvchi sonining ko'pligi bunga birinchi sabab (boshlang'ich sinflar kesimida oladigan bo'lsak). Endigina maktabga qadam qo'ygan bolaning xat -savodini chiqarish juda ham mashaqqatli jarayon. Ularning har biriga alohida e'tibor kerak. Bir sinfda o'rtacha hisobda 32 ta o'quvchi bo'ladi deb hisoblasak, dars uchun ajratilgan 45 daqiqa ichida o'qituvchining 32 nafar o'quvchi va alohida ta'limga muhtoj bolaga vaqt yetmaydi. Natijada faqat vaqt sog'lom bolalar uchun bilim berish bilan yakunlanib qoladi. Achinarlisi hozir alohida ta'limga muhtoj bolalar ta'lim jarayoni uchun muammo sifatida qaralyapti, chunki ularning imkoniyati cheklanganligi sababli boshqa bolalarga nisbatan o'zlashtirishi va o'rganishi qiyin. O'qituvchilarning ko'pchiligi faqat lider o'quvchilar bilan ishlashga o'rganib qolishgan. Inklyuziv ta'limning mazmunini, avvalambor, birinchi navbatda o'qituvchilarning o'ziga singdirilishi kerak.

Nogironligi bor shaxslar uchun ta'lim yashash quroli hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning hammasi ham ta'lim muassasalariga borib ta'lim ololmaydi.



Shuning uchun ularga dars mashg'ulotlari onlayn tarzda olib borilsa va bu jarayonda ota-ona ko'maklashsa samaraga erishish mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun shunday bir dastur ishlab chiqilsinki, bu dastur orqali barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalar tahsil ola olsin. Ko'zi ojiz bolalar uchun maxsus dars mashg'ulotlari ularga moslangan holda, eshitishda muammosi bo'lgan, gapira olmaydigan bolalar uchun maxsus ishoralar orqali tushuntirilgan darslar ularning sinfini e'tiborga olgan holda mavzulashtirilgan holda mavzulashtirilishi kerak. To'g'ri, buning uchun ko'p vaqt va mablag' ketadi, lekin bu orqali ta'limda yangi yutuqlarga erishish mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yaxshi maktab rivojlantiruvchi, ta'lim beruvchi hamda inklyuziv ta'lim amalga oshiriladigan maktabdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" 2020
2. "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" F.U.Qodirova, D.A.Pulatova
3. "Inklyuziv ta'lim. Gosptial kedagogika" o'quv-uslubiy majmua .  
Shahrisabz 2024.
4. [president.uz](http://president.uz) internet sayti
5. [yuz.uz](http://yuz.uz) internet sayti
6. [kun.uz](http://kun.uz) internet saytlari